

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA ENGIL SANOAT INSTITUTI

KAFEDRA: "LIBOS DIZAYNI"

REFERAT

MAVZU: TURKMAN VA TOJIK MILLIY KOSTYUMI.

Bajardi: Zaidov U.
Tekshirdi: Vaxidova U

Toshkent 2010 y.

Mavzu: Turkman va tojik milliy kostyumi.

Reja:

1. Turkman kostyumining tarixiy taraqqiyoti.
2. Turkman erkaklar va ayollar kostyumi.
3. Tojik milliy kostyumining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
4. Tojik erkak va ayollar kostyumi.
5. Tojik va turkman kostyumida qo'llangan naqsh va bezaklar.

Adabiyotlar: 1. Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М: Наука, 1975 г

2. Костюм народов Средней Азии (под редакцией Сухаревой О..А.) – М: Наука, 1975 г.

Turkman milliy kiyimlari erkak va ayollarning to'g'ri bichimli ko'ylaklari, ishtonlari va bosh kiyimlaridan iborat bo'lgan. Ularga XVIII- XIX asrlarda asos solingan bo'lib bugungi kunda ham uncha katta o'zgarishlarsiz iste'molda mavjuddir. Milliy kostyum shakllanishida iqlim sharoiti, mashg'ulot turi, tarixiy bog'liqlik, estetik va diniy qarashlar o'z ta'sirini o'tkazgan. Keng liboslar ko'chmanchi tarzdagi hayot uchun juda monand bo'lib, bunay kiyimlarda otda yurish yerda o'tirish ancha qulay bo'lgan, shu bilan birga yilning issiq va sovuq mavsumlarida tana haroratini me'yorida ushlab turishi bilan ham afzalliklarga ega edi.

Ayollar ko'ylagi erkaklarnikidan uzunligi va bezaklariga ko'ra farqlangan xolos. Ko'pgina turkman qabilalarida ayollar ko'ylaklari qizil, pushti va olcharang ko'rinishdagi ipak matodan tikilgan. Keksa ayollar to'q rangdagi oddiy bezakli ko'ylaklar kiyishgan.

Erkaklar va turmush qurgan ayollarning to'y – ma'raka liboslari oldi ochiq to'nlar – “chabit” va “chakmon” edi. Ular to'g'ri bichimli bo'lib, yon qismida etak da kesimi bolgan, etagi uzun bo'lgan. Bunday to'nlarni oq va sariq yo'lli to'q ko'k, to'q yashil yoki qizil rangli ipak matodan tikishgan. Ularning old, etak qirqimlari va yon kesimlari chekkasiga ingichka tasma bilan ishlov berilgan. Yashil va qizil rangli gazlamadan tikilgan bayram liboslari xashamdor bezaklari bilan ajralib turgan. Ba'zan ko'chada va uyda begona erkaklar oldida ayollar yopinchiq yopib yurishgan. Ayollarning kundalik ko'cha liboslarining ajralmas qismini “kurte” va “chirpi” deb ataluvchi yopinchiq tashkil qilgan. O'zining maxsus vazifasiga ko'ra u oddiy to'nlardan kichikroq bo'lib bezak sifatida qo'lanuvchi soxta yenglari mavjud bo'lgan. Bayram boshyopinchiqlari deyarli butunlay o'simlik naqshlari bilan bezatilgan.

Erkaklar, bolalar, va qizlarning doimiy va zaruriy bosh kiyimi – yarim dumaloq shaklidagi mayda geometric bezakli qizil shoyidan tikilgan do'ppi taxya hisoblangan.

Turmush qurgan ayollarning bosh kiyimlari turli – tuman bo'lgan. Kesik konus shaklidagi “bo'rik” kengroq tarqalgan edi. U chetlari turli rangli to'qima bezakli ro'mol bilan qoplangan. Turkman ayollari liboslarida qizil rang keng o'rin egallaydi. Turkmanlar bu rangni tabiatning hayotbaxsh kuchlari ramzi deb biladilar. Qizil rang omad keltirishiga, yomon ko'zlardan asrashiga ishonadilar.

Turli hududlar va qabilalarda har xil rang va bezaklar yetakchi o'rin tutgan. Kashta tikish qizlarga 8 – 10 yoshdan boshlab o'rgatilgan. Turkman chevarlari bir necha xil ko'inishdagi choklardan va turli qalinlikdagi ipak iplardan foydalanishgan.

Turkman ayollari kostyumini taqinchoqlashtirish tasavvur qilish qiyin. Agar diqqat bilan qaralsa bu taqinchoqlarda insonlarni tabiat unsurlari bilan birlashtirib turuvchi deb hisoblangan hayvon va hasharotlar tasvirini ko'rish mumkin bo'ladi.

Qizlarga uch to'rt yoshidanoq bilakuzklar taqib qo'yishgan. Yoshi kattalashib borishi bilan bezaklar soni ham oshib borgan.

“Kupbi” – kumushdan yasalgan qubba shaklidagi bezak bo'lib qizlar qalpog'i bezagi hisoblangan.

Ayollar va qizlar bosh kiyimlarida bo'yinni, tomoqni, ko'krak va yelkani to'suvchi ko'plab qo'shimchalari bo'lgan. Taqinchoqlar miqdori ayolning ijtimoiy kelib chiqishiga bog'liq bo'lgan. Boy oila ayollari tantanali marosimlarda taqqan taqinchoqlari vazni olti sakkiz kilogramm atrofida bo'lgan.

Zargarlik buyumlari qurolsoz ustalar tomonidan yasalgan. Taqinchoqlar asosan kumushdan yasalgan. Yuzasiga geometric va o'simlik naqshlari bilan o'yib ishlov berilgan.

Qo'y terisidan tikilgan telpak turkman erkaklarining g'ururini ifodalab, ularni boshqa o'rta osiyo xalqlaridan o'ziga xosligi bilan ajratib turgan.

Telpak turkman xalqining asosiy mashg'uloti chorvachilik ekanligini ham o'zida aks ettirgan.

Telpakning yana bir o'ziga xos jihati u yoz issig'idan, qish sovug'i va bahor yomg'iridan boshni muhofazaqilib turgan. Shu bilan birga telpakning bir qancha kamchiliklari ham bo'lib bular sirasiga uning faqat ma'lum o'lchamladagina tikilishi va dehqonchilik ishlarini bajarishda tug'diradgan kamchiliklarini kiritish mumkin. Lekin uni yechib biror yerga ilib qo'yish ham

mumkin edi. Bu holda bosh yalang qolmaslik uchun telpak ostidan kiyiluvchi do'ppi mavjud bo'lgan.

Xiva xonligi tarkibiga kiruvchi Toshovuz turkmanlari orasida "chalpak yoli" deb ataluvchi yassi telpak keng tarqalgan edi. Buxoro amirligiga qarashli amudaryo bo'yi turkmanlari esa "chovurma telpak" deb ataluvchi telpak kiyishgan. Ijtimoiy – iqtisodiy omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan: boy kishilar bir nechalab "silkma telpak"ka ega bo'lsa, kambag'al odam oddiygina "shipirtma" telpak kiyib yurgan. Telpaklar asosan oq, qora va olabula rangda bo'lgan.

XIX asr oxiri va XX as boshlarida turkman kiyimlari oddiy tuzilishi va qat'iy silueti, ularda qizg'ish jigarranglarning ko'p qo'llanilishi biln xarakterlanadi. Turkman liboslarining barcaiga xos bo'lgan umumiy xususiyat: tunikasimon bichim, yelka kiyimlarining keng, erkin, xarakatni cheklamasligi, ayollar va erkaklar kiyimi bichimidagi o'xshashlik kabilarni sanab otish mumkin. Bu liboslarni tikishda chorva mollari junidan va o'simlik tolasidan to'qilgan matolar bilan birga qo'shni xalqlardansotib olingan matolardan ham foydalanishgan.

XIX asr va XX asr boshlarida turkman kiyimlari asosan uy sharoitlarida to'qilgan matolardan tikilgan. Bu matolar paxtalik, ipak, jun, charm va movutdan iborat bo'lgan. Turkmanlr ustki va ichki kiyimlar uchun ko'plab matolar to'qishgan. Paxtalik matodan erkaklar va ayollar uchun ko'ylak va ishtonlar tikishgan.

Olacha deb ataluvchi paxtalik va yarim shoyi mayda ko'k qizil katakchali matodan erkaklarning kundalik ko'ylaklari va ishtonlari hamda ayollar ko'ylaklai tikishgan. Ayol va erkaklarning to'y liboslari "yashi ketani" va "qirmizi ketani" debataluvchi ipak gazlamdan tikilgan. Ingichka turfarang chiziqli qizil paxtalik, shoyi va yarim shoyi matolardan erkak va ayollar ustki kiyimlari tikilgan.

Sariq yo'l – yo'l mato ayollar ustki kiimlari tikishda ishlatilgan. Erkaklar ustki kiyimi – chakmon tuya junidan to'qlgan dag'al., yupqa tabiiy bo'yoqqa bo'yalgan matodan tikilgan. Chorvachilik va tuyachilik rivojlangan hududlarda junli matolar ko'p ishlab chiqarilgan.

Shuningdek turkmanlar boshqa o'rta osiyo xalqlari tomonidan ishlab chiqarilgan matolardan ham foydalnishgan.

Bayram liboslarini o'zbeklarning shoyi matosidan tikishgan. O'zbeklarning chit matosiga ham Turkmanistonda talab katta bo'lgan. Kaspiy dengizi sharqiy qig'oqlari va janubiy chegaralarda istiqomat qiluvchi turkmanlar ozarbayjon va eron marolaridan ham foydalanishgan.

Erkaklar kostyumi majmuasi. Erkaklar kostyumi tarkibiga: ko'ylak ishton;

paxta bilan qavilgan to'n, astarli va astarsiz; qish mavsumi uchu mo'ynali chakmonlar; bel kiyimlari – ustki ishtonlar; bosh kiyimlari – do'ppilar mo'ynali telpaklar; trli ko'rinishdagi poyabzallar – kalishlar va charm etiklar.

Erkaklar ko'ylagi ko'ynak tunikasimon bichimli, o'rta uzunlikdagi, keng uzun yengli, yon choklari etak qismida kesimlari mavjud bo'lgan. Barcha hududlarda yashovchi turkmanlar oldi berk ko'ylaklar kiyishgan. Faqat Amudaryoning o'rta oqimida o'zbeklarga yaqin hududda istiqomat qiluvchi turkmanlar “yektay” deb ataluvchi oldi ochiq ko'ylaklar kiyishgan.

Bu davrda yotiq – tik yoqa o'mizi o'ng ko'krakka joylashgan qo'shimcha kesimga ega yoqa o'mizli ko'ylaklar ham kiyishgan. G'arbiy tumanlarda XX asr boshlarida qaytarma yoqali ko'ylklar ham paydo bo'la boshlagan ular rus kiyimlari ta'sirida yuzaga kelgani uchun o'ris yoqa yoki eplema yoqa ham deb atashgan.

Keksa kishilar sovuqda shoyidan tikilgan va qavilgan yotiq yoqali ko'ylak kurta kiyib yurishgan. Bel kiyimlari ichkisi – balak bizdon, ishton, ustkisi – jalbor deb atalgan.

Yelka kiyimlari – yovmutlarda ichmak, sariqlarda poso'n, tekinlarda po'stin deb ataluvchi choponlar kiyishgan.

Turkman ayollar liboslari majmuasi. Ayollar kostyumi asosan quyidagilardan tashkil topgan: bosh yopinchiqlari – naqsh bilan ishlov berilgan “kurte”, “chirpi”, ayollar ko'ylagi “ko'yneq”, ayollar to'nlari “chavit”, “maldoi don”, “sritaxta don”.

“Chirpi” – alohida tantanali marosimlar uchun mo'ljallangan ayollar bosh yopinchiqlari bo'lib, janubiy tumanlarda uning – oq, sariqva yashil ranglilari uchragan. Chirpiga o'simlik gullari va geometric shakllardan iborat bo'lgan o'ziga xos naqshlar bilan bezak berilgan.

“Kurte” ham o'ziga xos bo'lgan yopinchiq bo'lib, chirpiga qaraganda biroz kamroq naqshlar bilan bezalgan.

Turkmaniston shimolida yashovchi chovdur ayollari “purenjek” va “bosh otgich” deb ataluvchi yoinchiqlarni ham kiyishgan. Bu liboslar qizil matodan va parchadan tikilgan. Ularda “gul bossan” nomli o'simlik naqshlari va muhofaza qiluvchi xususiyatga ega deb hisoblangan uchburchak bezaklar qo'llangan.

“Keteni ko'ynak” – ayollar ko'ylagi qizil, yashil va binafsharang matolardan tikilgan.

Tojik kostyumi shakllanishida o'lka tabiati ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Mamlakat iqlimi turli mintaqalarida turlichadir. Vodiylarda subtropik iqlim, o'rta qismlarida iliq, tog'li tumanlarida salqin iqlimga ega. Yilning to'qqiz

oyi davomida quyoshli kunlardan iborat. Qishi sovuq, yozi quruq va issiq kechadi. Havoning o'rtacha harorati 10 – 30 gradusni tashkil etadi. Malakat tekislik qismida yoz issiq qish yengil sovuq kechadi. Tog'li hududlarda qish sovuq, yoz salqin, kuz, qish va bahorda yog'ingarchilik ko'p bo'ladi.

Tojik milliy kostyumi turli hududlarda turlicha bo'lsada, umumiy jihatlarga ham ega bo'lgan. Erkaklar ichki kiyim sifatida tunikasimon bichimli ko'ylaklar, keng og'li ishtonlar, yelka kiyimlari to'n va choponlar, bosh kiyimi do'ppi va salla, poyabzallardan maxsi, kavush, tog'li tumanlarda uch tishli poshnali poyabzallar kiyishgan.

Ayollar tunikasimon bichimli ko'ylaklari mayin matolardan tikilgan. Keng shalvorlar yurish uchun qulay bo'lgan. Ko'ylaklar koketkali bo'lgan. Ayollar ko'ylagi sholvori va ro'mollarida o'ziga xos bo'lgan bezaklar qo'llanilgan.

Bosh kiyimlari ikki guruhga bo'lingan:

Janubiy tumanlar – Qora Tegin, Darvoza, Ko'lob aholisi bosh kiyimlari; Shimoliy tumanlar Zarafshon, O'ratepa, Asht, Konibodom, Isfara aholisi bosh kiyimlari. Tojik ayollar kostyumi o'z ichiga birqancha elementlarni oladi. Birinchi navbatda ayollar bosh kiyimi tarkibiy qismlarini ko'rib chiqish lozim.

1. Mato bo'laklaridan tikilgan bosh kiyimlari.

a) salla uzun mato bo'lagidan iborat. Darvozada ayollar sallasi 3 – 5 metrlik oq matodan, keyinroq fabrikada to'qilgan dokadan tikilgan. Yuqori Qorateginda salla qalami deb nomlanuvchi matodan o'ralgan. O'ratepada esa xosa degan matodan tayyorlangan.

b) katta ro'mollar. Dokadan tikilgan ro'mollar janubiy tumanlarda soba, doka, latta (Qorategin), shimolda – qars, doka deyilgan. Bashang ro'mollarni numol, ro'mol deb atalgan. Tojik ayollari to'rt xil ko'rinishdagi ro'mollar: to'g'ri burchakli, kvadratsimon, uchburchak ko'rinishda bo'lgan. To'g'ri burchakli ro'mollar asosan janubda – Ko'lob va Darvozada ko'proq uchragan.

Lachak – qalin matodan qilingan uchburchak shaklli ro'mol. Ko'loblik ayollar o'rashgan.

Tojikistonning deyarli barcha tumanlarida kvadratsimon ro'mollar iste'molda bo'lgan. Faqat ba'zi shimoliy tumanlarda ayollar uy sharoitida to'g'ri to'rtburchak shaklidagi ro'mollarni o'rashgan. Janubiy tumanlarda shoyi matolardan tikilgan doroi, halil, shol deb nomlanuvchi ro'mollarni o'rashgan. Shimoliy tumanlarda yupqa ipak ro'mollar iste'molda bo'lib ular ko'lagay deb atalgan. Janubiy tumanlarda ham shunga o'xshash ro'mollar uchrab turgan ular guli barra deb atalgan. Qish faslida O'ratepa ayollari echki junidan tivit ro'mollar o'rashgan

Ro'mollarning kichik ro'mol va peshonaband kabi turlari bo'lgan.

Kichik ro'mollarning numolcha, numolak, qarsak, nozbandak, chakkaband, durra, durrachai deb ataluvchi turlari bo'lgan. Keksa ayollar uchun oq va to'q rangli matolardan, yoshlar uchun yorqin rangli matolardan ro'mollar tikilgan. Peshonaband. Bosh kiyimining bu tarkibiy qismi mandil, sarbandak, peshonaband nomlari bilan mashhur bo'lgan. XX asrning 50 – yillaridan boshlab bu turdagi ro'mollar tiklmay qo'yildi. Lekin eskilarini saqlab qo'yib to'y kuni yuzni to'suvchi chodir ro'band bilan o'rashadi. Peshonaband 50 – 60 sm uzunlikdagi 4 – 8 – 10 smli mato bo'lagidan tikilgan.

2. Qalpoqlar – sochyopqichli, sochyopqichsiz, do'ppi ko'rinishida bo'lgan.

Sochyopqichli qalpoqlarning bir qancha turlari mavjud bo'lgan: kuluta, shabkulak, shavkulak, kalpushak, toqi, telpak. Ular astarlik qilib, ba'zan yupqa paxt qatlami bilan tikilgan. Qalpoq va sochyopqich turli xil matodan tikilgan. Sochyopqich uzun matodan to'g'ri shaklda bichilgan. Sochlar yoyilib ketmasligi uchun pastki qismi uchlari o'zaro bog'lab qo'yilgan.

Sochyopqich quyi tomonga kengayib boruvchi 60 smgacha uzunlikdagi matodan tikilgan.

Sochyopqisiz qalpoqlar – toqisarak, kuloh deb atalgan.

Do'ppilar – toqi, qalpoq, to'ppi deb atalgan.

3. Kapyushon ko'rinishidagi, yuz ochilib turishi uchun uzun kesik bilan tikladiga bosh kiyimi. Bular lachak va kuluta deb atalgan.

Lachakning uchlari old tomondan ko'krakkacha, old qismi belgacha tushib turgan.

Kuluta hamoq matoda tikilgan uzunligi 142 sm kengligi 77 sm bo'lgan.

Konibodomda kulutani oq matodan tikishgan va yarim ovalsimon shaklga ega bo'lgan. Alohida ikkita bo'lakdan tashkil topgan. bundan tashqari Leninobodda ro'moli doka deb atalgan o'lchami 154 x 154 smli ro'mollar ham iste'molda bo'lgan.

Matolar asosan dastgohlarda to'qilgan bo'lib hunarmanadchilikning bu turi bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Olacha, beqasam deb nomlagan matolar hozir ham juda mashhur. Ulardan to'n tikiladi. Bundan tashqari yo'l yo'l matolardan ham ko'ylakar tikilgan.

Zandona – qadim zamonlardan boshlab Movarounnahr, Xuroson, Eron va hatto yevropa malakatlarida mashhur bo'lgan. Bu mato Buxoro yaqinidagi Zandona qishlog'ida to'qilgan.

Olacha – yorqin, turli rangli, yo'l – yo'l mato. Paxta va ipakdan to'qilgan. Hozirgi kunda Hisor vodiysi aholisi tomonidan to'qiladi. Uni ikki turi bor. Zebak va farangi.

Beqasam – yarimshoyi mato. Yo'l – yo'l naqshli. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo'qon hunarmandlari tomonidan to'qiladi. Tojikitonda Qoratog'lik

to'quvchilar to'qishadi.

Parcha – butun dunyoga mashhur shoyi mato. Undan tikilgan liboslarni bayramlarda kiyishadi.

Shohi qomus – zich to'qilgan, tasvirlarga boy mato. Undan bayram liboslari va ro'mollar tikishgan.

Chit – paxtalik naqshinkor mato. Smarqand, Buxoro, O'ratepa, Qoratorog'da bugungi kunda ham to'qiladi. Bu matolar qatorida tojiklar malla, futa, kimxob, dibo deb nomlanuvchi matolardan ham liboslar tikishgan.

Zardo'zi tojiklarda eng keng tarqalgan badiiy hunarmandchilik turi bo'lib, bunda libosga oq va zarli iplar bilan bezak berilgan. Zardo'zi asosan kimxobga tikilgan. Zardo'zining ikki turi mavjud: zamindo'zi va guldo'zi.

Zamindo'zi – butun mato bo'ylab turli ranglarda bezak berish.

Guldo'zi – mato yuzasidagi rasmlarga zar bilan bezak berish.

Guldo'zi usuli bilan to'nlar, choponlar, kelin kuyov uchun etik va kavushlarga bezak berilgan. Bunda ipning tarkibi 10 – 20 % oltindan iborat bo'lgan. Naqshlarda oftob, bulbul, g'uncha, atirgul, gulzor, mavj aks ettirilgan.

Kashtachilik ham Tojikistonda hunarmandchilikning rivojlangan turi hisoblanadi. Tog'lik tojik ayollari liboslarga bo'rtma kashta bilan bezak berishgan. Qizlarga 9 – 10 yoshidan boshlab kashta tikishni o'rgatishgan. Kashtachilik markazlari sifatida – O'ratepa, Xo'and, Isfara, Konibodom, Asht, Panjikent tumanlarini ko'rsatish mumkin.

Tojik naqshlari

Tojik tasviri va amaliy san'ati o'zida qadimiy ellin va kushon an'analari hamda Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Eron va Sharqiy Turkmaniston xalqlari amaliy san'atini mujassamlashtirgan holda taraqqiy etgan. VII asrdagi arab bosqinidan keyin islom dinining keng tarqalishi tojik amaliy bezak san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tasviriy san'atda naqqoshlik yo'nalishi rivoj topib rassomlik o'zining asl ma'nosini yo'qotgan holda o'zida geometric shakllar va o'simlik tasvirlarini jamlagan kompozitsiyaning bir elementiga aylandi.

Somoniylar davri sopol buyumlarida berilgan bezaklarda naqsh va fon bo'yoqlarida kontrast ranglar yetakchilik qiladi. Bunday sopolalarda ularning butun yuzasini yirik geometrik, o'simlik va geraldik naqshlar qoplagan. Bu naqshlar ular arxitekturasida ham aks etgan.

Temuriylar va Shayboniylar davriga kelib naqshlarda o'simlik tasvirlari keng o'rin egallay boshlaydi. Naqshlar bir qator geometrik shakllar o'simlik tasvirlari birikishidan hosil qilingan.

XVIII asrdan XX asr boslarigacha Ho'jand, O'ratepa, Isfarada ganch va

yog'ochga ishlov berishdan saboq beruvchi xalq naqqoshlik san'ati maktablari mavjud edi. Ustalar tomonidan yaratilgan naqshlarda musulmon sharqiga xos bo'lgan maxalliy o'simlik tasvirlari aks etgan. Ularning o'ziga xos xususiyatlari yorqin va issiq ranglarning mutanosib tarzda qo'llanilganligidir. XVIII – XIX asrlarda yaratilgan zargarlik buyumlarida baliq, qush, yarim oy tasvirlari aks ettirilgan. Tojikistonda mato to'qish ham rivojlangan bo'lib, shoyidan “abr” naqshli yo'l – yo'l va sidirg'a matolar to'qilgan. Matolarga ham o'simlik naqshlari bosilgan. Do'ppilarga “Bodom” va “Qalampir” naqshlari tikilgan. Uy bezaklari orasida so'zana alohida o'rin tutadi. So'zanada ilon, hayvon izlari qo'y va ecki shoxi, oy va quyosh tasvirlangan. Shu bilan birga ramziy ma'nolarga ega bo'lgan choynak anor donalari kabi tasvirlar ham qo'llangan.

Turkman naqshlari.

Turkman amaliy bezak san'atining yuzaga kelishi miloddan avvalgi IV – III mingyilliklarga borib taqaladi. XV asrga oid chinni buyumlarda daraxt butoqlari, qanot qoqayotgan qushlar, gullar taviri aks ettirilgan.


Turkmanistonda qadim zamonlardan buyon gilamdo'zlik taraqqiy etgan. Bu gilamlarning tasvirlari temuriylar davri miniartyuralri va XIV – XVI asr yevropa rassomlari suratlarida aks etgan. Kigiz gilam koshm to'qish chorvador turkmanlar ko'chmanchi hayot tarzi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Bu gilamlarda asosan qizil, olcharang, qizg'ish jigarranglarda to'qilgan. Bu ranglarni kam miqdorda toq yashil, ko'k, oq ranglar to'ldirgan. Chekka qismlari to'q ko'k yoki to'q jigarrang bo'lgan. Turkman gilamlarining asosiy naqshlari “gyo'l” deb nomlanuvchi gilam markazidagi naqshlar, va gilam chekkalaridagi “elemi” deb ataluvchi o'ziga xos tasvirlarga ega bo'lgan yo'l yo'l naqshlardan iborat bo'lgan.

“Gyol” naqshlari to'g'ri chiziq bo'ylab yoki shaxmat tartibida joylashgan. Ulardagi tasvirlarda o'simlik suratlari va nasab bilan bog'liq bo'lgan, qabilaning ramzi hisoblangan yirtqich qushlarning suratlari ifodalangan. Ular “tamg'a” deb atalgan.

Turkman gilamlari bir necha guruhlarga bo'linadi. Qadimiy qabilalardan bo'lgan salorlar to'qigan gilamlar o'zining estetik go'zalligi va sifati bilan ajralib turgan. Tiniq olcharang fon, gyol markazida shoyi ip bilan to'qilgan malinarang bezakla salorlar gilamlariga tengsiz go'zallik baxsh etgan. Bu gilamlar markazida “dagri – darak” deb atalgan Γ simon shakl bezak sifatida qo'llangan. Qadimiy bezaklarning takibida “kuchuk izi”, “oq suv”, “soynak”, “itik gul keleti” bu ikki tomonga ayri qo'ng'iroqchalar va poyadan iborat naqsh. U gilamning quyi qismida to'qilgan. U bahorgi gullagan cho'l zaminini aks ettirgan.

Tekinlarning gilamlari oltinrang bo'yoqlari va qizil gullari bilan ajralib turgan. Ularning o'ziga xos jihati gyollarning diagonal b'ylab joylashganidir. Asosiy naqshlar orasida xochsimon naqshlar joylashgan. Turkman gilamlarida rang yetakchi rol o'ynaydi. Bir xil naqshning turli ranglarda to'qilishi turli ma'nolarni anglatadi.


Ersarinlarning gilamlarida o'zbek va eron gilamlarida qo'llangan naqshlar qo'llangan. Ulardagi ko'plab bezaklar qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Masalan siniq chiziq, panjara, arrasimon uchburchak, romb shakllari neolit davriga oid, tishsimon shakllar parfiya davriga oid. XVIII – XX asr gilamlarida to'rtburchak va sakkizburchak naqshlar qo'llangan. Bu gilamlarda qora, qizil, yashil, ba'zan och sariq oq va olcharanglar qo'llangan.




Tojik ayollar ro'moli bichimi



Tojik ayollar bashang libosi




Tojik ayollar ko'ylagi bichimi




Tojik erkaklar to'ni bichimi



Tojik ayol va erkalarining mehmonga borish uchun kiyiladigan kiyimlari



Turkman erkaklari tunikasimon ko'ylagi bichimi



Turkman ayollar ko'ylagi bichimi



Chirpi – turkman ayollar to'nlari



Turkman bezak va naqshlari.



Tojik bezak va naqshlari

Adabiyotlar: 1. Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М: Наука, 1975 г
2. Костюм народов Средней Азии (под редакцией Сухаревой О..А.) – М: Наука, 1975 г.